

YOQILG'I-ENERGETIKA TARMOG'INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH YO'NALISHLARI

Qo'ziyeva Nilufar Norxidirovna
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxona innovatsion salohiyatini funksional blok bo'yicha tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimi, yoqilg'i-energetika kompleksi faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar bahosi keltirilgan, yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyatini rivojlantirish o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan, yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha vazifalar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: energiya xavfsizligi, energiya ta'minoti, elektr energetika, yoqilg'i-energetika, iqtisodiy samaradorlik, uzatish, sotish, bozor tamoyillari, iqtisodiy mexanizmi, issiqlik elektr stansiyalari, issiqlik elektr markazlari, mintaqaviy energiya bozori, vertikal integratsiya, tariflar, tartibga solish usullari, boshqaruv usullari, iqtisodiy xatarlar.

Аннотация

В данной статье система показателей, характеризующая инновационный потенциал предприятия по функциональным блокам, оценка основных факторов, влияющих на экономическую эффективность топливно-энергетического комплекса, особенности развития топливно-энергетической сети, а также показаны задачи повышения эффективности топливно-энергетической сети.

Калит сўзлар: энергетическая безопасность, энергоснабжение, электроэнергия, топливо и энергия, экономическая эффективность, передача, сбыт, рыночные принципы, экономический механизм, тепловые электростанции, теплоэнергетические центры, региональный энергетический рынок, вертикальная интеграция, тарифы, методы регулирования, методы управления, экономика риски.

Аннотация

In this article, the system of indicators describing the innovative potential of the enterprise by functional block, the assessment of the main factors affecting the economic efficiency of the fuel and energy complex, the specific features of the development of the fuel and energy network, and the tasks for increasing the efficiency of the fuel and energy network are shown.

Key words: energy security, energy supply, electric power, fuel and energy, economic efficiency, transmission, sale, market principles, economic mechanism, thermal power plants, thermal power centers, regional energy market, vertical integration, tariffs, regulatory methods, management methods, economic risks.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning globallasuvi, qayta tiklanmaydigan resurslarning qisqarishi, suyuq uglevodorodlar va qattiq yoqilg'i turlari

jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi sharoitlarida, iqtisodiyotni samarali innovatsion rivojlantirishni ta'minlash uchun mavjud texnologiyalarni zamonaviylashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek dunyo yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo mamlakatlari yoqilg'i-energetika kompleksi iqtisodiy samaradorligi holati shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda energetika sohasida turli innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishda XXR, Germaniya, AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlar yetakchilar hisoblanadi. Xitoyda YOEK tarmog'idagi kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli 6,3%, Germaniya – 5,1%, AQSH – 4,5%, Yaponiyada – 3,5% energetika kompleksida innovatsiyalarni joriy qilish va rivojlantirishga yo'naltiriladi[1].

Jahonda yoqilg'i-energetika tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, yoqilg'i-energetika tarmog'ini yanada samarali rivojlantirish masalalariga majmuaviy yondashish, yoqilg'i-energetika tarmog'ini samarali rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda yoqilg'i-energetika tarmog'i rivojlanishining ijobiy ta'sirlari qayd etilgan, shunga qaramay, ushbu ta'sirlarning yo'nalishi va ko'lamini bo'yicha kompleks fikr shakllanmagan. Shundan kelib chiqqan holda, yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha izlanishlar olib borish lozimligini belgilaydi.

So'nggi yillarda yoqilg'i-energetika kompleksini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasida elektr energetika tarmog'ini yanada rivojlantirish va isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Qaroriga asosan [2], "O'zbekenergo" AJ negizida bir-biradan mustaqil bo'lgan, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ, "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda, respublika energetika sohasida samarali boshqaruv tizimini tashkil qilish va sohani jadal rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5646-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda, O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

"Energiya xavfsizligi" tushunchasi borasida bir qancha iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Energiya xavfsizligi hozirgi kunda eng ko'p muhokama qilinadigan mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin "Energiya xavfsizligi" tushunchasi bo'yicha umumiy qabul qilingan yagona ta'rif yo'q. Shuning uchun ham "Energiya xavfsizligi" yoki "Energiya ta'minoti xavfsizligi" tushunchalari amaliyotda ko'p ishlatiladi. [3].

Tadqiqotda yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalari innovatsion rivojlanishining milliy iqtisodiyotga ta'siri, iqtisodiy o'sish va aholi bandligini oshirishning jadal harakatlantiruvchi omili sifatidagi xususiyatlari tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishda olib borilgan izlanishlarni umumlashtirgan holda tadqiqotda yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarining rivojlanish darajasini baholashda metodologik yondashuvlar, jumladan, innovatsion, texnologik, tizimli yondashuvlar tahlil qilinib, ulardan sanoat korxonalari faoliyatini samarali rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinib, tegishli xulosalar shakllantirilgan. Shu bilan birga, energiya arzonligi uchun xalqaro ko'rinishdagi maxsus standart mavjud emas, u mamlakatlar o'rtasida yalpi ichki mahsulot (YAIM), inflyatsiya darajasi va aholi jon boshiga ko'ra o'rganiladi[4].

Energiya eksport qiluvchi mamlakatlar uchun talabning xavfsizligi, ta'minotning ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash kabi muhim bo'lishi mumkin. Ushbu mamlakatlarda iqtisodiyot va davlat budjeti energiya eksportidan keladigan daromadlarga juda bog'liq. Masalan, neft sanoati bo'yicha Saudiya Arabistoni YAIMning 42 foizini, budjet daromadlarining 87 foizini va eksportning 90 foizini tashkil etadi [5].

Biroq ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida narx darajasi va kashfiyotning optimal sur'ati borasida ziddiyatli fikrlar paydo bo'lishi mumkin. Energiya iste'molchi mamlakatlarni birlashtiruvchi Xalqaro Energetika Agentligi, energiya xavfsizligi tushunchasini — energiya manbalarini arzon narxda olish va uzluksizligini ta'minlash, deb hisoblaydi [6].

METODOLOGIYA

Yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarini tahlil etish bilan shug'ullangan milliy va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Maqolani tayyorlashda abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda neft, gaz va ko'mir yoqilg'i sanoatining asosiy qazib olish mahsulotlari hisoblanadi. YOEMda qattiq yoqilg'i sifatida qazib olinadigan ko'mir qidirib topilgan va sanoat zaxiralari bilan ta'minlangan yoqilg'i resursi bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda u milliy energetika barqarorligini belgilaydi. Hozirgacha O'zbekistonda qidirib topilgan ko'mir zaxiralari bir necha yuz yillarga yetadi. Ko'pgina mamlakatlarda ko'mirning narxi neft va gazga nisbatan ancha past bo'lib, elektr energiyasining ko'mir hisobiga ishlab chiqariladigan ulushi AQSHda 52%ni, Germaniyada 53%ni, Xitoyda esa 78%ni tashkil etadi. Dunyo tog'-kon sanoat majmuasining holatini tahlil etgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bir yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 0,8-0,9 trln. dollarni tashkil etib, jumladan, uning 70%i yoqilg'i-energetika resurslariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida

asosiy yetakchi muammolardan biri tabiatdan foydalanish, yoqilg'i-mineral homashyo bazasini rivojlantirish va yer osti boyliklaridan foydalanish samaradorligini oshirishga oqilona yondashishdir. Ushbu holatni aniqlashda quyidagi omillar yuzaga keladi [7]: ichki bozorda yoqilg'i-energetika resurslariga talabning mavjudligi, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar, YOEMning davlat tomonidan boshqarilishi va rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining to'g'ri boshqarilish darajasi. Yoqilg'i-mineral xomashyo bazasi rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: geologik qidiruv ishlarining qisqarishi bilan bog'liq holda zaxiralar hajmining kamayishi, neft, gaz va ko'mirni qazib olish sharoitlarining qiyinlashuvi va murakkablashuvi, shuningdek, energiya tashuvchilarining jahon narxлари konyunkturasi va transport xarajatlarining ortishi. Bularning barchasi mamlakat YOEM rivojlanish strategiyasini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadi [8].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, iqtisodiyotimiz rivojida YOEM yetakchi o'rinni egallab, uning kelajakda ham xuddi shu o'rinni egallab turishi uchun iqtisodiy-ekologik rivojlanishning optimal variantlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda majmuada atrof-tabiiy muhit bilan bevosita uzviylikda faoliyat yurituvchi ko'mir sanoatining iqtisodiy faoliyatini ekologiyalashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bir qator ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Yoqilg'i resurslarini qazib olishning ekologik darajasini oshirish bo'yicha texnik-texnologik tadbirlar ishlab chiqishda 2 ta asosiy tamoyilga yondashish zarur:

1. Istalgan yangi yaratiladigan yoki qo'llaniladigan kon qazib chiqarishning texnika va texnologiyasiga qo'yiladigan asosiy talab uning so'zsiz ekologik xavfsizligidir.

2. Insonni o'rab turgan tabiiy muhitni saqlab qolish mineral resurslarni qazib olish jarayonida xo'jalik faoliyatidagi istalgan texnokratik qarordan shubhasiz ustuvorlikka ega[9].

Yoqilg'i-energetika majmuasi korxonalari faoliyati murakkab va turli ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat bo'lib, iqtisodiy-ekologik rivojlanish masalalarini majmuaviy hal etishni taqozo etadi. Asosiy e'tiborni korxonalar faoliyatining iqtisodiy, tashkiliy, boshqaruv va ekologik dasturlarini birgalikda tizimli yondashuv asosida amalga oshirish orqali olinadigan ijobiy samarani yanada oshirishga qaratish lozim. Shu sababli, ayniqsa, yoqilg'i-energetika majmuasining ko'mir sanoat tarmog'i faoliyatini iqtisodiy-ekologik rivojlantirishning integratsiyalashuvini ta'minlash yo'nalishlarini asoslash va uning uslubiyotini ishlab chiqish muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Ichki muhitni tahlil qilish va uning innovatsion salohiyatini baholash detalli va diagnostik ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin. Ichki muhitni detalli tahlil qilish va korxonaning innovatsion salohiyatini baholash innovatsion loyihani asoslab berish bosqichida amalga oshiriladi. Tizim haqida axborot olish imkoniyati cheklangan holatlarda diagnostik yondashuv qo'llaniladi, ya'ni diagnostika innovatsion loyiha yo'nalishlarini aniqlash va resurslar salohiyatini baholashda faoliyat modellari va rivojlanish masalalari bo'yicha ochiq bo'lgan ko'rsatkichlar doirasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Baholash uchun quyidagi baholash ko'rsatkichlari agregatlarini ajratib ko'rsatish

mumkin: mahsulotga oid; funksional; resursga oid; boshqaruv; tashkiliy ko'rsatkichlar. Ichki muhitning innovatsion salohiyati uchun bazaviy baho tizimning innovatsion imkoniyatlarini belgilab beradigan funksional agregat hisoblanadi. Ushbu agregat bo'yicha ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Korxona innovatsion salohiyatini funksional blok bo'yicha tavsiflaydigan ko'rsatkichlar [10]

Guruhlar	Ko'rsatkichlar
Xarajat ko'rsatkichlari	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ilmiy hajmdorligi (sotuv hajmida ITTKI xarajatlari salmog'i)
	Patentlar, litsenziyalar, nou-xau xarid qilish xarajatlari
	Innovatsion firmalar xarid qilish xarajatlari
	Jahonda yoki tarmoqda yuzaga kelgan amaliyotga muvofiq innovatsion sikllar bosqichida xarajatlar strukturasi
	Innovatsion ishlanmalarni rivojlantirish fondlari mavjudligi va hajmi
Innovatsion jarayon dinamikasini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar	Yangi mahsulotga talab yoki ehtiyojni anglab yetish vaqtidan uni bozorga yoki iste'molchiga katta hajmda yetkazish vaqtiga qadar bo'lgan davr
	Yangi mahsulot yoki texnologiyani ishlab chiqish jarayonining davom etish muddati
	Yangi mahsulot ishlab chiqarishni tayyorlash jarayonining davom etish muddati
	Yangi mahsulotni ishlab chiqarish siklining davom etish muddati
	Marketing tadqiqotlari asosida bajarilgan ishlanmalar salmog'i
	Ishlanmalar umumiy miqdorida tijorat nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli loyihalar salmog'i
	Muvaffaqiyatli marketing siyosati tufayli bozorda muvaffaqiyatga erishgan ITTKI bo'linmalari innovatsion ishlanmalari salmog'i
Yangilanish ko'rsatkichlari	Mahsulotning yangilanish dinamikasi ko'rsatkichlari (umumiy hajmda ikki yildan o'n yilgacha chiqarilgan mahsulot salmog'i)
	Xarid qilingan (sotilgan) yangi texnologiyalar miqdori
	Fan-texnika mahsulotlari eksporti hajmi
	Asbob-uskunalarini yangilash koeffitsiyenti, jumladan, tamomila yangi asbob-uskunalar negizida

Muqobil energiya manbalarining energetik salohiyati yuqoridir. Ammo ulardan keng foydalanish ma'lum bir qiyinchiliklar – noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha texnik qarorlarning tajriba-sanoat tavsifi va iqtisodiy cheklovlar bilan bog'liq [11]. Dunyoda bunday texnologiyalarni qo'llashning samarador va arzon qiymatli misollari juda ko'p, ammo ulardan foydalanish ushbu sohada ilmiy-texnik qarorlarning qimmat ekanligi bilan baholanadi (2-jadval).


2-jadval

Turli texnologiyalar asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish qiymati [12]

Elektr energiyasini hosil qilish usuli	Elektr energiyasining qiymati, sent/kVt.soat
Ko'mirda ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari	2,0
Shamol energiyasi	6,4
Geotermal energiya	5,8
Biomassa energiyasi	6,3

Elektr energiyasini hosil qilish usuli	Elektr energiyasining qiymati, sent/kVt.soat
Bugʻ asosida ishlovchi gaz turbinalari	4,8-6,3
Atom elektr stansiyalari	12,5
Fotoelementli quyosh batareyalari	28,4

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, YOEMning koʻmir sanoat tarmogʻini iqtisodiy-ekologik rivojlantirish variantlarini shakllantirish va ishlab chiqarish quvvatlarining takror ishlab chiqarish hamda ijtimoiy-ekologik xarajatlarini minimallashtirishning maqsadli funksiyasi orqali tuziladigan iqtisodiy-matematik model asosida amalga oshirish amaliy ahamiyatga egadir. Shuning uchun koʻmir qazib olishda integratsiyalashgan iqtisodiy-ekologik tizimlarni joriy etish va foydalanishning samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir [13].



1-rasm. Yoqilgʻi-energetika kompleksi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash koʻrsatkichlari

Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Uslubiyatga texnik-texnologik innovatsiyalarni joriy qilishdan olingan va ishlab chiqarish xarajatlarning tejalgan summasiga teng boʻlgan yillik iqtisodiy samarani hisoblab chiqish tamoyili asos qilib olingan. Bu tamoyil asosida ushbu korxonalar ichki muhiti obyektlariga multiomilli yondashuvdan foydalanadigan va yer qaʼridan foydalanishning differentsiatsiya qilingan koʻrsatkichlaridan foydalanishni hisobga oladigan yoqilgʻi-energetika kompleksi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash koʻrsatkichlari taklif etildi (1-rasm).

2015 – 2022-yillar davomida yoqilgʻi-energetika majmuasida gazni qazib olish surʼatlari oshganligini kuzatish mumkin. Neft qazib chiqarish va mos holda uni qayta ishlash surʼatlari pasayganligi qayd etilib, yildan-yilga koʻmirni qazib olish va shunga muvofiq elektr energiyasini ishlab chiqarish surʼatlari ortishi kuzatilgan (3-jadval).

3-jadval

Yoqilg'i-energetika tarmoqlari bo'yicha umumiy mahsulot hajmining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida) [14]

Tarmoq	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2015-2022
Elektr energiya-tikasi	102,7	101,1	103,0	101,3	102,2	105,8	110,3	103,0	133,1
Ko'mir	98,2	108,5	95,3	109,2	110,0	90,4	111,3	104,4	128,1
Neft qazib chiqarish	101,3	102,9	104,5	97,7	91,9	112,9	96,2	93,7	99,5
Neftni qayta ishlash	90,7	100,9	94,1	105,4	99,9	93,0	97,2	98,9	81,1
Gaz	110,3	100,3	109,7	99,8	96,9	112,5	101,5	100,5	134,7

Elektr energiyasini ishlab chiqarishda foydalaniladigan tabiiy gaz va neft mahsulotlarining o'rnini bosish, respublika yoqilg'i-energetika balansi tuzilmasida ko'mir ulushining oshishi maqsadga muvofiqligi ko'mir sanoatining ustuvor rivojlanishining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

YOEMning kelgusidagi iqtisodiy-ekologik rivojlanishiga turtki beruvchi omillardan biri innovatsion-investitsion jarayonlar ekanligi shak-shubhasizdir. Sanoatning yoqilg'i-energetika sektorida innovatsion-investitsion jarayonlarning xususiyatlarini o'rganish yoqilg'i sanoati faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarining O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash siyosatiga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. 2010 – 2017-yillarda yoqilg'i-energetika tarmoqlarida mahsulot turlarini ishlab chiqarish dinamikasini o'rganish tahlili shuni ko'rsatdiki, majmuaning rivojlanishi turg'un bo'lib (4-jadval), yoqilg'i resurslarini qazib olish quvvatlarining ortishi ekologik zarar yetkazish holatlarining o'sish imkonini yaratadi. Shuning uchun majmua faoliyatida innovatsion-investitsion jarayonlar iqtisodiy-ekologik chora-tadbirlar bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda yoqilg'i resurslari bozori konjunkturasi o'zgaruvchidir. Bunga sabab nafaqat neft narxidagi keskin o'zgarishlar, balki energiya tashuvchilarning kamayib borishi ham taalluqlidir.

4-jadval

Yoqilg'i-energetika tarmoqlarida mahsulot turlarini ishlab chiqarish dinamikasi [15]

Mahsulot turlari	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.
Ko'mir, ming t	3629,4	3844,8	3753,0	4090,0	4396,8	3488,0	3867,3	4038,6
Elektr energiyasi, mln. kVt/soat	51976,3	52806,2	52999,6	54618,6	55766,0	57658,1	59100,5	60092,3
Neft, ming t	2017,9	1901,6	1571,7	1279,8	1031,3	1000,1	867,9	806,0

Mahsulot turlari	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.
Gaz kondensati, ming t	2019,5	1835,6	1765,4	1887,4	1835,8	1728,0	1747,5	1961,7
Avtomobil benzini, ming t	1413,8	1323,2	1237,2	1164,3	1068,1	1064,0	1134,3	1106,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	1127,9	1052,0	1009,3	1125,3	982,1	1286,4	1008,3	962,9
Mazut, ming t	321,7	278,3	255,2	202,3	143,7	89,8	93,4	111,4
Suyultirilgan gaz, ming t	369,8	365,4	382,1	559,6	606,8	836,3	654,9	692,9

Investitsiya kiritish jarayonlarini faollashtirish, uning zaxiralaridan foydalanish darajasini oshirish iqtisodiyotdagi mavjud tanglikdan chiqib ketishga sabab bo'lishi kerak. Faqat shu yo'l bilan iqtisodiy islohotlar davri mobaynida investitsion zaxiralar shakllanishining yangi yo'nalishlari, iqtisodiyotning aniq sektorida qayta ishlash bazasining ortib borishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganlarni, shuningdek, yoqilg'i-energetika kompleksi milliy iqtisodiyotning tizim hosil qiluvchi strukturasi hisoblanishini e'tiborga olgan holda, qayd qilish mumkinki, u iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va bu bilan aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin, ishda muallif tomonidan matematik modellashtirish va mamlakatlararo regressiya tahlili yordamida YAIM va yoqilg'i-energetika kompleksining rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (2007-2017-yillar uchun VEF ma'lumotlari asosida) tadqiq etildi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, EAPI (Energy Architecture Performance Index) indeksining musbat o'sishi mamlakat iqtisodiyoti uchun ham, YAIMning barqaror o'sishi uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Dunyoda yoqilg'i-energetika resurslarining qazib olinishi, energiya iste'moli bo'yicha statistik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, energiya manbalari orasida ko'mir yetakchi o'rinlarni saqlab qolaveradi (5-jadval). Shu sababli, asosiy xom ashyo sifatida qazib olinayotgan ko'mir bilan birga ikkilamchi resurslar va ko'mirni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan texnogen resurslar miqdori ortishi tabiiy.

5-jadval

Dunyoda energiya iste'molining prognozi [16]

Energiya manbai	Yillar				
	2020	2025	2030	2035	2040
Neft, mln. t	4377	4531	4650	4738	4820
Tabiiy gaz, mln.t n.e.	3650	4010	4360	4745	5050
Ko'mir, mln.t n.e.	4317	4480	4648	4851	5027
Atom energiyasi, mln.t n.e.	680	752	840	901	940
Gidroenergiya, mln.t n.e.	995	1087	1180	1256	1288

Energiya manbai	Yillar				
	2020	2025	2030	2035	2040
Qayta tiklanadigan energiya manbalari, mln.t n.e.	507	685	871	1085	1310
Jami, mln.t n.e.	14526	15545	16549	17576	18435

Foydali qazilmalardan oqilona va majmuaviy foydalanish, ularni qayta ishlashni kengaytirish va ikkilamchi xom ashyo resurslaridan keng foydalanish, mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashda yo‘qotishlarni qisqartirish, konlarni to‘la qayta ishlash, “foydali” chiqindilardan foydalanish – konlarni o‘zlashtirishdagi asosiy va doimiy e’tirof etilgan yo‘nalishdir. Umuman, ko‘mir va tabiiy gaz qazib olishda konlardan mineral xomashyoni qazib olish koeffitsiyenti 80-85%ni tashkil etadi. Qazib olish jarayonida topilgan neft zaxiralarining 60-70%i konlarda qolib ketadi [17]. Qurilish materiallari uchun esa bu ko‘rsatkich 30-40%ni tashkil qiladi. Barcha hollarda mutaxassislar foydali qazilmalarni qazib olish koeffitsiyentini oshirish imkoni borligini ta’kidlaydilar.

Yoqilg‘i-energetika tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo‘nalishlari quyidagicha:

1. Samaradorlikni baholash:

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili: Umumiy daromad, xarajatlar, sof foyda, kapitalning rentabelligi kabi ko‘rsatkichlar orqali samaradorlikni baholash.

Ishlab chiqarish samaradorligi: Yoqilg‘i va energiyaning iste’moli, chiqarilgan mahsulot hajmi bilan taqqoslanishi kerak.

Investitsiyalar qaytishi: Investitsiya kiritilgan loyihalardan qaytgan daromad va vaqt oralig‘i asosida baholanadi.

Sohaviy samaradorlik: Umumiy iqtisodiyotga ta’sir, yaratilgan ish o‘rinlari va milliy daromadning o‘sishi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

2. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari:

Texnologik modernizatsiya: Energiya sarfini kamaytirish va mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash uchun yangi texnologiyalarni joriy qilish.

Ilg‘or boshqaruv usullarini qo‘llash: Tizimli va to‘g‘ri boshqaruv orqali jarayonlarni optimallashtirish, xususan, resurslardan samarali foydalanish.

Innovatsiyalar: Yangiliklarni joriy qilish, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash.

Ekologik samaradorlik: Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish va energiya manbalarini diversifikatsiya qilish.

3. Investitsiya muhitini yaxshilash:

Qonunchilikni takomillashtirish: Investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiyalardan himoya va barqarorlikni ta’minlash.

Moliyaviy resurslardan foydalanish: Qarz mablag‘lari, xususiy sektor investitsiyalari va davlat subsidiyalarini samarali jalb qilish.

4. Ta’lim va malaka oshirish:

Kadrlar tayyorlash: Zamonaviy bilim va malakaga ega mutaxassislar tayyorlash orqali sohaning raqobatbardoshligini oshirish.

Ilmiy-tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash: Ilmiy va innovatsion tadqiqotlar orqali yoqilg'i-energetika tarmog'ini rivojlantirish.

Mazkur yo'nalishlar orqali yoqilg'i-energetika tarmog'ining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirish va milliy iqtisodiyotga katta hissa qo'shish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, YOEK tarmoqlari korxonalari faoliyati samarali rivojlanishining muammolarini kompleks tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, resurs soliqlari energetika kompleksi tashkilotlarining rentabellik darajasiga katta bosim o'tkazadi. Korxonalarning samarali rivojlanishini ta'minlaydigan muhim omillardan biri sifatida yetarli darajadagi moliyaviy resurslarning mavjudligini inobatga olib, ushbu muammoning yechimlaridan biri sifatida energetika kompleksi korxonalari faoliyatining faollashuvi va jadallashishi uchun qo'shimcha pul mablag'larini ajratishga qaratilgan soliq yukini pasaytirish mexanizmi taklif qilinadi.

Shuningdek, yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- barcha energetika sohasi bo'yicha samarali huquqiy bazani shakllantirish, tabiiy monopoliyalar faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va monitoring qilish;

- tegishli davlat organlari tomonidan iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va aholini to'liq darajada ishonchli energiya bilan ta'minlash bo'yicha kafolat va nazoratni ta'minlash;

- energetika sohasida energiya resurslarining strategik zaxiralarini samarali boshqarishni ta'minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;

- energetika sohasining eskirgan texnologik bazasini modernizatsiya qilish, ilmiy-texnik va energetika sohasida investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish;

- energetika sohasida zamonaviy xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish, ekologik xatarlarni kamaytirish va tabiiy ofatlarning oldini olish bo'yicha davlat nazorati mexanizmini ishlab chiqish.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida Yoqilg'i-energetika tarmog'i faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish va moddiy resurslar tejamini ta'minlash, xizmat ko'rsatishning jadallashuvi hamda xarajatlarining kamayishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. The World Bank: World Development Indicators. <http://data.worldbank.org/indicator>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси ёқилғи-энергетика тармоғини бошқариш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5646-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/4188798>

3. Franki, V., Višković, A. (2015), Energy security, policy and technology in South East Europe: Presenting and applying an energy security index to Croatia. Energy, 90(1), 494-507.

4. Yergin, D. (2006), Ensuring energy security. Foreign Affair, 85(2), 69-82.

5. Riesman D. Leisure and Work in Post- Industrial Society. Mass Leisure. Eds.E. Larrabee, R.Meyersohn. Glencoe (III), 1958. pp. 363-385; Bell D. The Year 2000-The Trajectory of an Idea. Toward the Year 2000. Work in Progress. Ed.by D. Bell. Boston, 1968. pp. 27-33.
6. Кондраков О.В. Классификация угроз энергетической безопасности региона // Социально-экономические явления и процессы. 2012. № 10.
7. Дубровин Е., Дубровин И. Энергетическая безопасность как важная составляющая национальной безопасности. URL: <http://www.eprussia.ru/epr/170/12776.htm> (дата обращения: 11.01.2016).
8. Гольц Г.А. Транспорт и макроэкономика России за три века. Материалы X международной (тринадцатой Екатеринбургской) научно-практической конференции 14-15 июня 2004 года.
9. Муратова Ш.Н. Подходы к выбору мероприятий по обеспечению экономико-экологического развития добычи топливно-минеральных ресурсов. // Микроэкономика. – Москва, 2016. – №4. – С. 59.
10. Аллаева Г.Ж. Проблемы формирования и развития инновационной энергетики в Республике Узбекистан. Проблемы современной экономики. Евразийский международный научно-аналитический журнал. № 3, 2016 г. Санкт-Петербург, Россия. (08.00.00; № 21).
11. Бикеева Э.Р. Энергетическая политика в Узбекистане: перспективы развития энергетического сектора и ориентиры диверсификации баланса первичных энергоносителей в рамках перехода к ресурсосберегающей модели развития: Аналитический доклад. ИПМИ 2015 г.
12. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. – М.: 2004. – С. 219.
13. Муратова Ш.Н., Алимходжаев С.Р. Ёқилғи-энергетика мажмуаси тармоқларининг атроф-мухитга таъсири ва уни пасайтириш йўллари. // «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали, 2016. – №1, январь-февраль.
14. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.
15. Muratova Sh.N. Innovative approach to economic and environmental development of fuel and energy complex. // International Journal of Economics, Commerce and Management, 2016, Vol. 4 (8). – P. 171.
16. Конторович А.Э., Эпов М.И., Эдер Л.В. Долгосрочные и среднесрочные факторы и сценарии развития глобальной энергетической системы в XXI веке. // Геология и геофизика. – 2014. – № 5-6. – С. 694.
17. Сайдахмедов Х.М. Влияние истощения минерально-сырьевых ресурсов на устойчивый экономический рост страны. // Материалы Международной научно-технической конференции «Интеграция науки и практики как механизм эффективного развития геологической отрасли Республики Узбекистан», Часть 1. – Т.: ГП «НИИМР», 2016. – С. 325.